

FURQAT ALIMARDON IJODIDA ZAMONRUHI VA INSONLAR TAQDIRI  
(O‘TMAGAN KUNLAR) ASARI MISOLIDA

Anvarjonova Shohidaxon Mansur qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
filologiya tillarni o‘qitish: o‘zbek tiliyo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21249427>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada o‘zbek hikoyachiligiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan Furqat Alimardonning “O‘tmagan kunlar” asari tahlil qilinadi. Asarda inson ruhiyati o‘tmish va bugun, insoniy qadriyatlarning badiiy ifodasi yoritiladi. Hikoyaning sujeti, kompozitsiyasi obrazlar tizimi tahlil qilinib, muallifning g‘oyaviy-badiiy mahorati ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** mansab, hokimiyat, o‘tmagan kunlar, adolat, oqibat, yomon tush, o‘tmish, bugun, o‘tkan kunlar.

**Аннотация.** В данной научной статье анализируется произведение «Не прошедшие дни» Фурката Алимардона, внесшего значительный вклад в узбекскую литературу. Произведение затрагивает вопросы человеческой психики, прошлого и настоящего, а также художественное выражение человеческих ценностей.

Анализируются сюжет, композиция и система образов рассказа, раскрывающие идеологические и художественные навыки автора.

**Ключевые слова:** карьера, власть, не прошедшие дни, справедливость, последствия, кошмар, прошлое, сегодня, прошедшие дни.

**Abstract.** This scientific article analyzes "Unpassed Days" by Furqat Alimardon, who has been making a worthy contribution to Uzbek short story writing. The work highlights the human psyche, the past and the present, and the artistic expression of human values. The plot, composition, and system of characters of the story are analyzed, and the author's ideological and artistic mastery is revealed.

**Keywords:** position, power, Unpassed Days, justice, consequences, nightmare, past, present, Bygone Days

Hozirgi kunda o‘zbek nasri kundan kunga rivojlanib, o‘sib bormoqda yangidan yangi yozuvchilar kashf etilyapti. Shulardan yana biri Furqat Alimardon hisoblanadi. Yozuvchi 1991 yilda Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgan. 2014 yilda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining «Xalq ijodiyoti» fakultetini tamomlagan. Talabalik paytidan boshlab respublika nashrlarida hikoya va maqolalari e‘lon qilinadi. Hozirda «Ma‘rifat»-«Uchitel Uzbekistana» gazetalari tahririyatida faoliyat yuritadi. Yozuvchining “Pichirlangan sirlar”, “Men”, “Ko‘ngillardan ungan chechaklar”, “Oqibat”, “O‘tmagan kunlar” kabi hikoyalari mavjud.

Yozuvchining “O‘tmagan kunlar” asari bir qarashda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini eslatishi mumkin. Qodiriy o‘z romanida o‘tkan kunlarni, o‘tkan ishlarni, voqealarni yozgan bo‘lsa, Furqat Alimardon aynan hozirgi kunda ro‘y berayotgan voqea, hodisalar, jamiyatimizning eng og‘riqli taraflari va kamchiliklari haqida yozdi.

Hikoya Zamon Toshovning qabulxonasida boshlanadi. Xonaning kattaligi, kengligidan, soatning chiqillashidan boshqa tovush eshitilmasligidan, odam qadam bosib odimlab borayotganida gilamlarning pati shunchalik qalinligidan go‘yo o‘zini qor oralab ketayotgandek his etishidan Toshovning boyligi va shu bilan birgalikda qattiqqo‘l boshliq ekanligini anglatib turadi. Qabulxonaga ish so‘rab suhbatga kelgan kishilar orasidan Xushboq Berdiyevich olib qolinib boshqalarga javob beriladi va unga ichkariga, boshliqning oldiga kirganingizda ortiqcha gap gapirmasligi, faqat so‘ralgan narsalarga javob berishi aytiladi. Xushboq Berdiyevich kirib kursiga o‘tirishi bilan qo‘lini duoga ochadi aynan manashu joyda biz Berdiyevichni anchagina Yoshi kata inson ekanligini payqashimiz mumkin. Xushboq Berdiyevich kadrlar boshqarmasi boshlig‘i etib tayinlanadi va unga ishga “kar bo‘lib kelib soqov bo‘lib ketishi” tayinlanadi.

Shu vaqt Toshov nega boshqalar bilan suhbat o‘tkazmadi, nega aynan Berdiyevich degan savol tug‘iladi. Buning asosiy sababi sifatida uning yoshi ancha kattaligi, ishchilarga bemalol gapira olishi, soddaligi va albatta tajribasini misol keltirishimiz mumkun. Asarda qishloqdoshlari uni tug‘ishdan boshqa barcha ishni bajarib ko‘rgan deb tasvirlashadi.

Toshovga Berdiyevichni aynan mana shu xususiyatlari juda maqul keladi.

Birinchi ish kunidayoq Xushboqning oldiga ishdan haydalishi kerak bo‘lgan ishchilar ro‘yxati qo‘yiladi. Ro‘yxatdagilar orasida o‘zining yaqin do‘stini ko‘radi va e‘tiborsiz qoldiradi va aynan mana shu joyidan voqealar keskinlashib boshlaydi.

Berdiyevich ishga joylashganidan ko‘ngli hotirjam, maoshi kattaligi va boshqa joydan tushadigan “tushumlar”ni o‘ylab boshlaydi. Hech qanday aybi kamchiligi bo‘lmagan Nabijon Salohiddinovni ishdan haydash maqsadida uni kamchiliklarini qidira boshlaydi.

Lekin Nabijon ishini shu darajada sitqidildan bajaradigan inson bo‘ladiki uni ishdan hech qanday xato ham kamchilik ham topaolmaydi va o‘zining “xabarchisi” bilan gaplashib uning xatosini topishni buyuradi. Xabarchi esa uning namoz o‘qishini har juma juma namoziga borishini aytib shuni bahona qilishib Nabijon Salohiddinovni ishdan haydashadi.

Hikoyaning aynan manashu joyida o‘sha og‘riqli nuqtani ko‘rishimiz mumkin.

Insonga mansab tekkanidan keyin boshqalarga bo‘lgan munosabati o‘zgarishi, nafaqat uni balki boshqalarning ham Berdiyevichga bo‘lgan munosabati o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida Berdiyevich o‘zining do‘stini besabab ishdan bo‘shatishi, o‘zining “xabarchilari” paydo bo‘lgani, boshqalarning sizning soyangizda yaxshi yuribmiz singari mulozamatli gaplari hamda eng alam qilarlisi hech qanday aybi, kamchiligi bo‘lmagan ishchilarni ham nimadir bahona bilan ishdan bo‘shatishini va boshqalarning aybini topish maqsadida odam yonlab unga haq to‘lashini, o‘zing odamlarini ishga joylashini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Bugun Xushboq uyga erta qaytadi. O‘zi ishga tavsiya qilgan odami birinchi maoshidan bazm qilib beradi. Bazmdan so‘ng uyga kelib dam oladi tushida ot minib tog‘ga chiqib ketayotgani, lekin tog‘ negadir g‘alati qizil rangda va sal oldinroqda bir odamni ko‘radi.

Yaqinroq borgach uni otasi ekanligini biladi, lekin otasi bundan ancha oldin olamdan o'tgan. U otdan tushda otasiga salom beradi otasi otni yuganini ushlab pasga qarab ketadi. Otasiga meni yuqorida ishim bor otni bering deganida otasi hassasi bilan uradi va hassaning zarbidan uyg'onib ketadi. Yoqasiga tuflab bu tush yaxshilik alomati emasligini payqaydi. Ertasi kuni o'z yaqinlari va tanishlarini to'plar tadbir o'tkazimoqchi bo'ladi va Bekqulga aytuvchilik qilish topshiriladi. Bekqul tadbirning sababini so'raganda yomon tush ko'rdim shunga deb qo'ya qoladi. Ertasiga tadbir ko'ngildagidek o'tadi lekin endi hamma Xushboq Berdiyevichni "yomon tush" laqabi bilan eslashdigan bo'ldi.

Xalqimizda inson tushida o'z taqdiri, kelajagini ko'radi kelajakda bo'ladigan narsalar inson tushida ayon bo'ladi degan tushunchalar bor. Xushboqning bu tushuning tabiri quyidagicha: tushda ot minishi bu shubhasiz mansabni anglatadi. Uning otdan tushushi mansabdan tushushi va ko'ngilsizliklarni anglatadi. Xushboqning mansabdan tushushi aynan uyda tadbir qilgan kundan boshlangan edi buning sababi sifatida aynan shu hudoyidan so'ng odamlar, o'zining yaqinlariga unga yomon tush deb laqab qo'yishadi, lekin e'tibor berib qaralsa asardagi yomon tush so'zi qo'shtirnoqqa olib yozilgan yani aslida gap Xushboq ko'rgan tush haqida emas uning o'zida edi. Yaqinlari go'yoki uni yomon tush kabi tasvirlashayotgan va bir kuni bu yomon tush tugab ular uyqudan uyg'onishlarini kutishyotgan edi. Asarning aynan mana shu joyida Xushboqning qilgan adolatsizliklarining mevasini ko'rishimiz mumkin, ya'ni uning "yaqinlari" ham uning adolatsizligidan charchagan va bu tush tugashini intozorlik bilan kutishmoqda.

Buyog'iga Xushboqning ishlari butunlay teskarisia ketadi. U oldin Toshovni oldiga ikki oylab navbat kutib kirolmaydi. U xonasida o'tirganda kotiba eshikni taqillatib uning tanishi kelganligini, lekin ismini aytmaganligini ma'lum qiladi. Shu vaqt ichkarida bir odam kiradi Xushboq uni tanimas shuning uchun salomlashkisi ham kelmaydi. Mehmonning ohangidan Xushboqning xotirasida nimadir yarq etadi. Bu axir o'zining viloyatidan maktab direktoriku. Bir vaqtlar u o'zining hisobidan maktab qurdirgan va o'zining qarindoshlarini ishga joylagani uchun ustidan shikoyat kelib chiqqan tekshiruvchi bo'lib esa Xushboq jo'natilgan shunda bu kishi uni tandiru yaxna go'shtga rosa bo'ktirgan. Hozir uning o'rniga o'g'li maktab direktori bo'lgan o'zi esa oddiy o'qituvchi. Mehmon o'zi bilan birgalikda olib kelgan idishni unga uzatadi qo'zi go'shtidan tandir. Xushboq qorovullar sizni bu narsa bilan qanday kiritdi deb so'rashganda ularga bittadan tog'olma va qurt berganligini aytib rosa kuladi.

Hikoyaning bu qismida Xushboqning yana bir qilgan ishi ochiladi, yani uning tekshirish uchun borgani va mehmon bo'lib qaytib kelgani, bundan tashqari mehmon qorovullarga narsa berib qoidalarni buzgani va qorovullarning arzimagan narsa uchun o'z vazifalarini suiiste'mol qilganliklarini ko'rishimiz mumkin va eng achinarlisi va alamlisi ota o'z o'rniga o'zining o'g'lini qoldirgani. Bu o'rinda go'yoki monarxiya shaklda ish tutilmoqda, ya'ni lavozim otadan o'g'ilga meros bo'lib qolmoqda. Vaholanki bu lavozimga undan ham yaxshiroq nomzodlar bo'lishi mumkin edi. Mehmonning Xushboqni oldiga kelishi uni yana bir xato ishga undaydi.

U ishlaydiga maktabda sport zal yo‘qligi va bir “ha” deb yuborishi, maorif bilan “kelishishi”ni so‘raydi. Xushboq albatta sizga yordam beramiz deb javob qaytaradi.

Ertasi kuni Toshovning katta yordamchisi kelib Xushboqqa ishdan bo‘shash haqida ariza yozishini ma’lum qiladi. Aybim nima deganida qamalib ketmaganingizga shukur qiling deb aytadi. Xushboq Berdiyevich Aliqulov “sog‘lig‘i yomonlashgani sababli o‘z arizasiga ko‘ra vazifasidan ozod etildi” va undan boshqa hech kim habar olmadi.

Asar so‘ngida Xushboqning qilgan ishlari o‘zining boshiga yetdi. Qilgan ishlari ayon bo‘ldi va o‘sha “yomon tush” tugadi.

Abdulla Qodiriy o‘zining “O‘tkan kunlar” asarida hijriy 1264-yillar voqealarini, bu zamondagi keskinlashuvni, insonlar hayotini, oilada jamiyatda insonlar o‘rni, taqdiri, kelajagini, insonlar xarakteristikasini mahorat bilan ochib bergan. Bu esa o‘z nomi bilan o‘tkan kunlar. Bu kunlar ortda qoldi, lekin Furqat Alimardonning bu asarida hozirgi kunda ham uchrab turadigan holatlar va insonlar tasvirlangan, yani mansabga erishgandan kiyin barchani unitadigan, doim nimadandir foyda kutadigan, mansabdor shaxsga “paxta qo‘yadigan” insonlar afsuski hozirgi kunda ham uchrab turadi. Muallif aslida bu kichkina asar orqali jamiyatimizning og‘riqli va hali ham o‘tmagan kunlarini mahorat bilan ochib bergan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Furqat Alimardon “O‘tmagan kunlar” Toshkent: Akademnashr 2024-yil
2. Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar” Toshkent “Navro‘z” 2019-yil
3. Asror Samad, Najibbek Rustamiy “999 tush tabiri”
4. Baxtiyot Omonov, Gulbahor Isanova “Siyosiy tizim” Toshkent “Mumtoz so‘z” 2023-yil